



MULOQOT VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

Achilov Bahodir Babayevich

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tuman 20-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro ijtimoiy muloqot va manaviy yetuk shaxsni tarbiyalashdagi muhim fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, jamiyat, shaxs, muloqot, faoliyat, kommunikatsiya

Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Shaxs– ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi–uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatib, bu shaxsning eng etakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi. Insoniy munosabatlarda dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

Shuning uchun ham muloqot, uning jihati, tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rne va salohiyati keskin oshdi. Muloqot hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlanishini o'z ichiga olib, bunday ma'lumot



almashinuv muloqotning kommunikativ jihatida ta'riflanadi. Odamlar muloqotga kirishar ekanlar, uning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar. Muloqotning ikkinchi jihatida – munosabatga kirishuvchilarning nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan ham almashinuvi nazarda tutilib, bu muloqotning interaktiv jihatida deb yuritiladi. Nihoyat, muloqotning uchinchi jihatida pertseptiv deb atalib, bunda munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etish olishlari tushuniladi. Shunday qilib, muloqot jarayonida shartli ravishda uchta, ya'ni kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (hamkorlikda harakat qilish) va pertseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish) jihatlarni alohida ko'rsatish mumkin. Ana shu uchta jihatning birligi muloqot jarayonida hamkorlikdagi faoliyat va jalb etilgan odamlarning o'zaro birgalikdagi harakatlarini tashkil etish usuli sifatida maydonga chiqadi. Muloqot bo'yicha o'rganilgan manbalarning tahliliga ko'ra shaxsning kamolga etishida muloqot muhim omil sanaladi. Ayniqsa shaxs bilim ko'nikma tasavvur tushuncha fikrlar imkoniyatiga ega bo'lish uchun albatta insonlar bilan muomala munosabatga kirishishi lozim. Shu bois allomalarimiz tomonidan keltirilgan fikrlar hozirgi kun yosh avlodni tarbiyalashda dasturi-amal vazifasini o'tab kelmoqda.

Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o'quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - o'zini - o'zi mukammallashtirish, o'zini - o'zi ruyobga chiqarish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini - o'zi baholash, o'ziga - o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. SHuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma-bosqich egallab borish - bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir. Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro



taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro hamjihatlikning zarurligini, oshqoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylikni va his-tuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun - qoidaga amal qilishini taqozo etadi.

Do'stona muloqot o'rnatish va do'st tutinish muammosi o'spirinlik yoshida ayniqsa dolzarb masalaga aylanadi

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini - o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

- 1) hamqorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.
- 2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.
- 3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.
- 4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Groxiyev, V.S. —Pedagogik muloqot madaniyati. — O'qituvchi uchun kitob M.: Akademiya, 2007 yil.
2. Darenskaya, L. —Muloqot madaniyatini tarbiyalash.



3. Zanina, L.V. Menshikova N.P. —Pedagogik mahorat asoslari —- Rostov-na-Don, 2003 .
4. Ilyin, E.N. Muloqot san'ati -M.: Akademiya, 2006 yil.